

MIRZACHO‘LNING SHARQIY SIRDARYO SO‘L SOHILI KARVON YO‘LI.

Mamatov Sharofiddin Musurmonqulovich

GulDU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola Mirzacho‘lning sharqiy qismidan, Sirdaryo daryosining so‘l sohili bo‘ylab o‘tgan qadimiy karvon yo‘lining tarixi, geografik yo‘nalishi va strategik ahamiyatini yoritadi. Unda ushbu yo‘l bo‘ylab shakllangan savdo va madaniy aloqalar, vaqtinchalik to‘xtash joylari, sardobalar va boshqa infratuzilmaviy obyektlar haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Shuningdek, karvon yo‘lining Mirzacho‘l mintaqasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ko‘rsatgan ta‘siri tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *Mirzacho‘l, Sirdaryo so‘l sohili, karvon yo‘li, qadimiy yo‘nalishlar, savdo aloqalari, sardoba, tarixiy geografiya, infratuzilma*

Annotation. *This article explores the ancient caravan route that passed along the eastern part of the Mirzacho‘l region, specifically the left bank of the Syr Darya River. It examines the historical development, geographic direction, and strategic importance of this route. The study also highlights trade and cultural interactions that occurred along the route, as well as infrastructural elements such as sardobas and rest points. Based on historical sources, the article analyzes the socio-economic impact of this caravan route on the Mirzacho‘l region.*

Key words. *Mirzacho‘l, left bank of Syr Darya, caravan route, ancient paths, trade relations, sardoba, historical geography, infrastructure*

O‘zining egallagan o‘rniga ko‘ra Sirdaryo viloyati Sug‘dni Choch bilan hamda Farg‘ona orqali Xitoy bilan bog‘laydigan muhim joyda joylashganligi sababli ham bu yerda qadimdan aholi yashab kelgan. Arxeologik tadqiqotlar viloyat hududida aholi tosh davridayoq bo‘lganligi haqida guvohlik beradi. Qadimda aholi asosan soy va chashmalar bo‘ylarida voha-voha bo‘lib hayot kechirishgan. Biroq Sirdaryo tarixini o‘rganish uzoq vaqt tarixchilarimiz e‘tiboridan chetda qolib keldi. Bunga ma‘lum ma‘noda Sirdaryo qadimda va o‘rta asrlarda kimsasiz cho‘l bo‘lgan va bu yerlar «sho‘rolar» hukmronligi davridagina o‘zlashirilgan degan noto‘g‘ri tushunchalar ham sabab bo‘ldi.

Viloyat hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ijodiy yondoshish, Sirdaryo viloyati hududida ilk shaharlarning paydo bo‘lish masalasida yangi fikrlarni bildirish imkonini bermoqda. Arxeologik tadqiqotlar viloyat hududida dastlabki dehqonchilik manzilgohlari Turkiston tog‘ tizmalaridan suv oluvchi Sho‘rbuloqsoy

bo‘ylarida bundan 3-4 ming yil oldin paydo bo‘lganligi haqida guvohlik beradi. Sho‘rbuloqsoy bo‘yida joylashgan yodgorliklar ichida eng qadimgisi Eski Xovos yodgorligi hisoblanadi.

Eski Xovos yodgorligi Xovos tumani Xovosobod qishlog‘ida joylashgan. Yodgorlikda hayot er.avv. IV-III asrdan to 1953 yillargacha davom etgan. Shahar hududi 12 gektarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan 2 gektari ark hududiga to‘g‘ri kelgan. Saqlanib qolgan balandligi 15 metr. Eski Xovos Samarqanddan sharqqa yo‘nalgan yo‘lining chorrahasida joylashgan. Undan bir tarmoq Xovosdan Kurkat orqali Xo‘jand va Farg‘onaga, ikkinchi tarmoq qadim Chochga olib borgan. Choch yo‘nalishida ikkita yo‘l bo‘lgan biri nisbatan uzoqroq, lekin xavfsiz yo‘l – to‘g‘ri Sirdaryo kechuvidan so‘ng shimolga, Benaket (Shohruhiya) shahriga va undan esa, Xarashkentga va keyin Choch poytaxti Binketga brogan; ikkinchi yo‘l qisqa – daryodan o‘tmasdan, uning chap qirg‘og‘i bo‘ylab, o‘rta asrlarda Xushket deb nomlangan hozirda Sayxunobod tumanining Nurota yodgorligiga borib, so‘ngra kechuvdan Benaket (Shohruhiya)ga o‘tilgan. Bu haqda IX-X asrda yashab o‘tgan arab geograflari Xordadbeh va Istaxriylar yozib qoldirishgan. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Eski Xovos yodgorligi Farg‘ona, Choch va Sug‘dda savdo yo‘nalishlari chorrahasidagi qulay va muhim manzil vazifasini bajargan. Eski Xovos uchun Sho‘rbuloqsoydan kanal qazib chiqarilgan. Ushbu kanal 1812 yilgacha faoliyat ko‘rsatgan.

Eski Xovos yodgorligi ilk bor chor Rossiyasi davrida tadqiqotchi N.Likoshin, keyinchalik 20-asrning 30-yillarida M.Ye.Masson tomonidan o‘rganilgan. Biroq u paytda bu yerda aholi yashaganligi sababli arxeologik tadqiqotlar olib borish imkoni bo‘lmagan. Yodgorlik 1988-1989 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Sirdaryo arxeologiya otryadi tomonidan o‘rganilgan. Yodgorlikning yoshini aniqlash maqsadida olib borilgan qazishmalarni, 10 metr chuqurlikdan suv chiqib ketganligi sababli nihoyasiga yetmay tugatishga majbur bo‘lingan. 10 metr chuqurlikda er. avv. I asrga oid madaniy qatlamlar aniqlangan. Xuddi shu otryad tomonidan 2003-2004 yillarda yodgorlik hududida er.avv. III asrga oid bir yarim g‘ishtdan qo‘tarilgan devor qoldiqlari va qadimgi Farg‘onadagi Eylatan madaniyati (er.avv. VI-III asrlar)ga xos, lekin mahalliy kulollar tomonidan yasalgan sopol idishlar topildi.

O‘zbekiston Arxeologiya instituti Sirdaryo otryadning ushbu yodgorlikda 2014-yil olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida er.avv. II-I asrga oid Anaxita haykalchasi va XII asrga oid yashil rangda sirlangan qora chiroq topildi. Ushbu topilmaning ahamiyati shundaki, uning baldog‘ida Xumo qushi tasviri tushirilgan. Yodgorlik hududida arxeologik tadqiqotlar davom etmoqda.

Eski Xovos tarixi yozma manbalarda Aleksandr Makedonskiyning O‘rta Osiyoga yurishi bilan bog‘liq tarixiy voqealar sababli kengroq yortilgan. Ma’lumki, er.avv. 329-327 yillari

O‘rta Osiyoga yurish qilgan Aleksandr Makedonskiy Sug‘d poytaxti Marakandani bo‘ysindirgach, Sirdaryo tomon yuradi. Yo‘lda u Ustrushonaning tog‘li fuqarolari qarshiligiga uchraydi. Mahalliy xalq uning g‘alla, oziq-ovqat to‘plash maqsadida yon-atrofga yuborgan otryadini qirib tashlaydi, Aleksandrning o‘zi ham bu yerlarda umrida birinchi bor yaralanadi. Aleksandr katta qiyinchilik bilan bu yerlarni bosib olgach, erksevar mahalliy xalqlarning hujumidan cho‘chib, 17 kunda hozirgi Xo‘jand va Bekobod shaharlari oralig‘ida taxminan Farhod GESi o‘rnida kal’a qurdiradi. Uni Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya) deb ataydi.

Shu orada Aleksandrning shahar qurish va daryo ortidagi saklarga qarshi daryodan o‘tib, jangga ketganligidan foydalangan mahalliy xalq yunonlarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Yunon tarixchisi Arrianning yozishicha «daryoga qo‘shni yashayotgan «yovvoyilar» shaharlarda turgan yunon bo‘linmalariga hujum qilib, ularni qirib tashlaydilar va bu shaharlarni yanada mustahkamlay boshladilar. Bu qo‘zg‘olonda ko‘pgina sug‘diylar ham qatnashadilar». Qo‘zg‘olondan xabar topgan Aleksandr zudlik bilan qo‘zg‘olonni bostirishga urinadi. U o‘zining tajribali va sodiq sarkardasi Kraterni «vahshiylarning» eng katta shahri Kiropol (Nijonisoy bo‘yidagi Xovotak (quyosh etagi) maskani o‘rnidagi «Nurtepa» yodgorligi deb taxmin qilinmoqda)ga yuboradi, o‘zi esa qarorgoh yaqinidagi G‘oz (Tojikistonning Nov shahri o‘rnida deb taxmin qilinadi) shahri tomon yo‘l oladi.

Ma’lumotlarda yozilishicha Aleksandr mahalliy aholiga tegishli bo‘lgan yettita qal’adan 5 tasini 2 kun ichida osonlik bilan zabt etadi. Qolgan ikkita qal’ani hiyla ishlatib, lahm kovlab, yer ostidan kirib borib istilo qilgan. Keyinchalik ushbu hududlar er.avv. III asrning oxirlarigacha bo‘lgan davrlarda Salavkiylar davlati tarkibida bo‘lgan. Er.avv. III asr o‘rtalarida salavk shohlaridan Antioxning lashkarboshisi Demodamant Miletlik bu yerlardan o‘tib, Yaksartning narigi qirg‘og‘idagi saklar bilan jang qilgan va hozirgi Oqqo‘rg‘on tumani hududida Qanqa (Shohruhiya) shahriga asos solgan.

Eski Xovos yodgorligi aholisi er.avv. III asrning oxirlaridan er. IV asrlargacha bo‘lgan davrda Qang‘ davlati tarkibida bo‘lgan. Xovos so‘zining kelib chiqishi borasida turli rivoyatlar mavjud. Ulardan birida aytilishicha, Shahristonda (ilk o‘rta asrlarda Ustrushonaning poytaxti bo‘lgan Bunjikat, hozirda Tojikiston hududida) shoh Qahqa bo‘lib, uning Xavasxon ismli qizi bo‘lgan. Qiz qattiq bosh og‘rig‘i dardiga muhtalo bo‘lgan. Kunlardan bir kuni shoh qizi bilan Xovos yerlarida ov qilgani keladi. Kelgan kunlarining ertasiga shoh qizi kuchli bosh og‘rig‘idan forig‘ bo‘ladi va shoh qizining sharafiga qishloq nomini «Xovos» deb atagan. Qizi uchun u Shahristondan kanal qazib kelishni buyurgan. Yana bir rivoyatda aytilishicha, Amir Temur bahorda bu yerlarda bo‘lgan va «havas qilsa arziydigan» joy ekan degan. «Xovotak» so‘zi «Quyosh etagi» degan ma’noni berar ekan balki «Xovos» degani «quyoshli» degan ma’noni anglatar deydi S.Qudratov.

Viloyatning qadimgi aholisi qanday nomlangani haqida fanda aniq ma'lumotlar yo'q. Yunon mualliflari ko'chmanchi saklardan farqli ravishda Sirdaryoning chap qirg'og'ida o'troq hayot kechirgan aholini umumlashma nom bilan «varvarlar» deb atashgan. Faqatgina Kvint Kursiy Rufdagina o'zlarining bosh shaharlari – Kiropolni makedoniyaliklardan himoya qilgan «memakenlarning kuchli qabilasi» haqida so'z ketadi. Tarixchi olim I.V.Pyankov fikricha markazi Kiropol bo'lgan butun vo'ha aholisi «memakenlar» deb atalgan. Chamasi, memakenlar viloyatning qadimgi aholisi tarkibiga kirgan qabilalardan birining nomi bo'lib, keyinchalik bu bir-biriga yaqin bo'lgan qabilalar viloyatning eng qadimgi elatini tashkil etgan.

Arxeologlar bu elatga tegishli madaniyatni Nurtepa madaniyati deb nomlashgan. Bu o'ziga xos madaniyat bir tomondan qadimgi Chochning Burg'uluq, Farg'onaning Eylatan, Qayroqum, Sug'dning Qadimgi Sug'd madaniyatlari ta'sirida bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan yuqoridagi madaniyatlar ham Nurtepa madaniyatining ayrim ko'rinishlarini o'zlarida aks ettiradi. Ushbu madaniyatga oid Eski Xovos singari, bugungi kunda viloyat hududida o'nga yaqin aholi manzilgohlari aniqlangan.

Ushbu madaniyatga mansub aholi uy-joylarni to'g'ri to'rtburchak va kvadrat shakldagi xom g'isht va paxsadan qurishgan. Shu bilan birga yarim yerto'lasimon uylar ham bo'lgan. Uy hayvonlari suyaklari, tosh yorg'uchoq, keli va uning soplarning uchrashi ularda chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanganligidan dalolat beradi. Sopol buyumlar charxda yoki qo'lda yasalgan. Qurol-yaroqlar ichida bronzadan yasalgan o'q-yoylar keng tarqalgan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivoji, temirchilikning yuksalishi, kulolchilikda charxning keng qo'llanilishi va viloyat aholisining qo'shni o'lkalar bilan savdo-sotiq munosabatlarining taraqqiy etishi viloyat hududidagi qadimgi yodgorliklarning iqtisodiy yuksalishga olib keladi.

Iqtisodiy yuksalish o'z navbatida er.avv. IV-III asrlarda Eski Xovos shaharining paydo bo'lishiga sharoit yaratadi. Ushbu shaharda hayot XX asr o'rtalarigacha davom etadi. Jumladan, Eski Xovos o'rta asr manbalarida ham tilga olinadi. Masalan, XI asr boshlarida Xovos Somoniylar sulolasining so'nggi vakili Muntasir va qoraxoniylar illoqi o'rtasidagi jang munosabati bilan tilga olinadi. Manbalarda yozilishicha, 1003 yil somoniylar davlatining amiri Abduibrohim bilan qoraxoniylar illoqi Nasr ibn Ali o'rtasida Xovos qal'asi yonida jang bo'ladi. Jangda amir Abduibrohim g'olib chiqadi. Rivoyatlarda Abduibrohimni asli xovoslik bo'lgan deyishadi. Janglarda yengilmaganligi sababli unga al Muntasir (arabcha Yengilmas) degan nom berishgan. Keyinchalik ushbu sarkarda Turkmanistonning Kerki shahri yaqinida o'ldirilgan. Kerki shahrida unga atab ulug'vor maqbara qurilgan.

Akademik V.V.Bartoldning yozishicha, 1366 yil Amir Temur amir Xusaynga qarshi kurashda Hisor hokimi Kayxusrav bilan yaqinlashadi, Kayxusrav Toshkentdan 2 ming

kishilik qo‘shini bilan kelib, Xovosda turgan Amir Temurga qo‘shiladi. Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asarida yozilishicha, shundan so‘ng Amir Temur hozirgi Mirzacho‘l yerlarida Amir Xusaynning son jihatdan ustun bo‘lgan qo‘shinini tor-mor etgan.

Xovosda Zahiriddin Muhammad Bobur ham bo‘lgan. «Boburnoma»da yozilishicha Bobur Shohruhiya va O‘ratepa oralig‘idagi Xovos qishlog‘idagi jangda Umarshayx Sulton Ahmad Mirzodan mag‘lub bo‘lgan. XV asrning ikkinchi yarmida Xovosda Abdurahmon Jomiy va Xoja Ahror Valiy bo‘lganlar. XVIII asrda Samarqand o‘zaro urushlar natijasida xuvullab qolganda u yerga xovosliklar ham ko‘chib borishgan va u yerda o‘zlarining guzarlarini tashkil qilganlar. Buxoro amiri Muzaffar Rossiya imperiyasi qo‘shinlaridan Sirdaryo sohillarida yengilgan (1866 yili) va qochib, kechqurun Xovos qishlog‘ida to‘xtab, 200 ming kishilik qo‘shinini mahalliy aholining uylariga joylashtirgan. Sirdaryo viloyati yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, muhim geografik joyda joylashgan. Shu sababli Sirdaryo viloyati tarixini chuqur o‘rganmasdan turib, u bilan chegaradosh qadimgi Sug‘d, Farg‘ona, Choch tarixini to‘liq bilib bo‘lmaydi. Zero, ular bir-birlari bilan Sirdaryo orqali bog‘langan. Yuqoridagi hududlar tarixiga oid hanuz o‘z yechimini topmayotgan ko‘plab muammolarni bizning nazarimizda Sirdaryo tarixini o‘rganish orqaligina yechish mumkin bo‘ladi.

Sharqiy Sirdaryo so‘l sohilida karvon yo‘llarining shakllanishi Markaziy Osiyoning savdo va iqtisodiy aloqalarida muhim o‘rin tutgan. Bu hudud qadimdan yirik savdo tarmoqlarini bog‘lab turuvchi geografik nuqta sifatida tanilgan. Mirzacho‘lning tabiiy xususiyatlari, ya’ni keng tekisliklari va Sirdaryoning boy suv resurslari, bu yerdan o‘tgan karvon yo‘llarining rivojlanishiga xizmat qilgan. Ayniqsa, Sharqiy Sirdaryo so‘l sohilining qulay joylashuvi sababli bu hudud qadimgi davrlardayoq savdogarlar va sayohatchilar uchun asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lgan.

Karvon yo‘llarining paydo bo‘lishida Mirzacho‘l va Sirdaryo mintaqasining tabiiy sharoiti asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Sirdaryo bo‘ylab joylashgan tabiiy manbalar va suvlarga yaqinlik karvon yo‘llarining bu hududda shakllanishini tezlashtirgan. Ayniqsa, yaylovlarning mavjudligi va ob-havo sharoitining qulayligi chorvadorlar va savdogarlarning karvon yo‘llaridan doimiy foydalanishini ta’minlagan.

Qadimiy davrlarda Mirzacho‘l orqali o‘tuvchi yo‘llar ikki asosiy yo‘nalishni birlashtirgan: Sharqiy Turkiston bilan G‘arbiy Osiyo oralig‘idagi savdo yo‘nalishlari va Shimoliy hududlar bilan Janubiy mintaqalarni bog‘lovchi yo‘llar. Bu yo‘llar orqali Sharqiy Sirdaryo so‘l sohilidagi yo‘llarning shakllanishida mahalliy davlatlar va ularning siyosati muhim rol o‘ynagan. Kushonlar, Qang‘ davlati va keyinchalik turkiy xoqonliklar bu hududdagi savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlashga e’tibor qaratganlar. Aynan davlatlararo tinchlik va karvon yo‘llarining himoyasi sababli savdo va madaniy aloqalar yanada kengaygan.

Davlatlarning savdoni qo‘llashi bilan birga, yo‘l bo‘ylab karvonsaroylar, bozorlar va boshqa infratuzilmalar barpo etilgan. Bu joylar savdogarlar uchun dam olish maskanlari sifatida xizmat qilgan va iqtisodiy markazlar sifatida tanilgan. Ayniqsa, Sharqiy Sirdaryo so‘l sohilida joylashgan markaziy punktlar savdo karvonlarining to‘xtash va yangi yo‘nalishlarga bo‘linish joyi bo‘lib xizmat qilgan.

Karvon yo‘llari nafaqat iqtisodiy, balki madaniy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu yo‘llar orqali turli xalqlar o‘rtasida madaniyatlar, ilm-fan va texnologiyalar almashinuvi yuz bergan. Ayniqsa, Sharqiy Sirdaryo bo‘ylab joylashgan manzilgohlar Sharq va G‘arb madaniyatlari tutashgan maskanlar sifatida tanilgan. Bu hududda mahalliy aholi bilan karvondagilar o‘rtasida doimiy iqtisodiy va madaniy aloqalar o‘rnatilgan.

Savdo yo‘llari orqali faqatgina tovarlar emas, balki yangi g‘oyalar, dinlar va texnologiyalar ham tarqalgan. Masalan, Sharqiy Sirdaryo bo‘ylab joylashgan hududlarda buddizm va islom kabi dinlar tarqalishi aynan savdo yo‘llari orqali yuz bergan.

Sharqiy Sirdaryo so‘l sohilidagi karvon yo‘llarining shakllanishi mintaqa uchun ulkan iqtisodiy, siyosiy va madaniy imkoniyatlar yaratgan. Bu yo‘llar nafaqat savdo-sotiq uchun, balki xalqaro hamkorlik va madaniy almashinuv uchun ham xizmat qilgan. Bugungi kunda bu hududning tarixini o‘rganish orqali o‘sha davrdagi xalqaro aloqalar va madaniy integratsiya haqida ko‘plab ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Sharqiy Sirdaryo so‘l sohilidagi karvon yo‘llari Markaziy Osiyoda savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu yo‘llar orqali mintaqalar o‘rtasida tovarlar, g‘oyalar, dinlar va texnologiyalar almashinuvi amalga oshirilgan. Ayniqsa, bu yo‘nalish Sharq va G‘arbning savdo aloqalarini bog‘lovchi asosiy ko‘prik sifatida tanilgan.

Karvon yo‘llari orqali turli mintaqalar o‘rtasida tovar almashinuvi amalga oshirilgan. Bu yo‘llardan ipak, ziravorlar, paxta, jun mahsulotlari, metall buyumlar va qimmatbaho toshlar kabi ko‘plab mahsulotlar tashilgan. Masalan, VI-X asrlarda Xitoydan olib kelingan ipak Markaziy Osiyo orqali Yevropaga yetkazilgan, bu davrda yiliga o‘rtacha 30 ming tonna ipak savdosi amalga oshirilgani qayd etilgan.

Sharqiy Sirdaryo so‘l sohilidagi savdo punktlari mintaqa uchun muhim iqtisodiy markazlar sifatida rivojlangan. Bu hududda joylashgan karvonsaroylar va bozorlar savdogarlarning uzoq masofalardan kelib-ketishida qulaylik yaratgan. Arxeologik miqyosda rivojlanganidan dalolat beradi.

Karvon yo‘llari savdogarlarning xavfsizligini ta‘minlash va ularning savdo faoliyatini infratuzilmalarning rivojlanishiga turtki bergan. Ushbu inshootlar savdogarlarning bir joyda to‘planishiga imkoniyat yaratgan va ularni yanada ko‘proq mahsulot bilan ta‘minlagan.

Karvon yo‘llari faqat savdo bilan cheklanib qolmagan, balki madaniy va intellektual almashinuvga ham xizmat qilgan. Bu yo‘llar orqali turli xalqlar o‘rtasida dinlar, san’at, adabiyot va ilm-fan almashinuvi amalga oshirilgan. Masalan, buddizmning Sharqdan G‘arbga tarqalishi, islom dinining yoyilishi va boshqa madaniy oqimlarning shakllanishida karvon yo‘llarining ahamiyati katta bo‘lgan.

Savdo bilan birga karvonlar orqali musiqiy asboblar, liboslar, me‘morchilik uslublari va boshqa madaniy qadriyatlar tarqalgan. VIII-XII asrlarda Markaziy Osiyo orqali kelgan turli madaniyatlar Yevropa va Osiyo xalqlari o‘rtasida uyg‘unlashuv jarayonini tezlashtirgan. Karvon yo‘llarining kesishgan nuqtalari madaniy almashinuv markazlariga aylangan, bu esa mintaqalar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Karvon yo‘llari orqali iqtisodiy resurslar va madaniy g‘oyalar almashinuvi mintaqalarni bir-biri bilan bog‘lagan. Sharqiy Sirdaryo so‘l sohilidagi yo‘llar savdo-sotiqni rivojlantirish, madaniy boyliklarni kengaytirish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Bu yo‘llarning rivojlanishi natijasida mintaqa iqtisodiyoti mustahkamlanib, madaniyatlararo aloqalar yanada chuqurlashgan. Bugungi kunda ushbu yo‘llarning tarixini o‘rganish orqali qadimgi davrlardagi savdo va madaniy hayot haqida ko‘plab muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Karvon yo‘llari, O‘rta Osiyo va uning atrofidagi hududlarda savdo va madaniy aloqalar o‘rnatilishida markaziy rol o‘ynagan. Bu yo‘llar nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni ham shakllantirishga xizmat qilgan. Karvon yo‘llari, asosan, buyuk savdo marshrutlari bo‘lib, ular orqali Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy, ilmiy, diniy va iqtisodiy aloqalar amalga oshirilgan. Ushbu yo‘llar Xitoydan boshlanib, Markaziy Osiyo, Fors, Armaniston va Turkiyaga yetib boradigan keng tarmoqni o‘z ichiga olgan.

Karvon yo‘llarining tarixi er. avv. davrlarga borib taqaladi. Eng mashhur yo‘l –Buyuk Ipak yo‘li, Sharq va G‘arbni bog‘lab, Xitoydan boshlanib, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Qozog‘iston orqali Yaqin Sharq va Rim imperiyasiga yetib borardi. Ushbu yo‘l orqali Xitoyning ipak va boshqa qimmatbaho tovarlari G‘arbga yetkazilgan. Shu bilan birga, bu yo‘llar orqali G‘arbning metall buyumlari, zirhlar, nafaqat tovarlar, balki madaniy elementlar, ilm-fan va din ham o‘tgan. Xususan, buddaviylik, xristianlik va islom dinlari orqali ushbu yo‘llar diniy aloqalarning rivojlanishida muhim o‘rin tutgan.

Karvon yo‘llari savdoni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Bu yo‘llar orqali turli xalqlar o‘rtasida mahsulotlar almashildi. Misol uchun, Markaziy Osiyoda yetishtirilgan shirinliklar, ziravorlar, to‘qimachilik buyumlari va ipak G‘arb mamlakatlariga eksport qilingan. O‘z navbatida, G‘arbning metall buyumlari, qurol-aslahalari va san’ati Sharqqa olib kelingan. Shunday qilib, karvon yo‘llari orqali nafaqat iqtisodiy aloqalar rivojlanib,

balki madaniy almashinuv ham yuzaga kelgan. Bu o‘zgarishlar mamlakatlar orasidagi iqtisodiy bog‘lanishlarni mustahkamladi va ko‘plab savdo markazlarining shakllanishiga olib keldi.

Karvon yo‘llari nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy aloqalarning mustahkamlanishiga ham xizmat qilgan. Bu yo‘llar orqali davlatlar o‘rtasida diplomatik aloqalar o‘rnatilgan va xohlagan davlatchiliklar o‘rtasida savdo shartnomalari tuzilgan. O‘rta Osiyo hududida joylashgan Samarqand, Buxoro, Termiz, Xiva va boshqa shaharlarda savdo markazlari shakllangan, bu yerda xalqlar o‘rtasida madaniy va ilmiy almashinuvlar ro‘y bergan. Madaniyatlar o‘rtasidagi bu aloqalar san‘at, arxitektura va ilm-fanda iz qoldirdi. Masalan, musulmonlarning ilm-fanlari, astronomiyasi va falsafasi Buyuk Ipak yo‘li orqali Xitoyga yetib borgan va u yerda keng tarqalgan.

Karvon yo‘llari o‘tkazgan yo‘lga o‘rnatilgan bozorlar va savdo markazlari xalqning kundalik hayotida ham muhim o‘rin tutgan. Bu yo‘llar bo‘ylab sayohat qilgan savdogarlar turli xalqlarni birlashtirib, ijtimoiy tarmoqlarni kengaytirgan. O‘z navbatida, bu yo‘llar aholining madaniy va diniy rivojlanishiga xizmat qilgan, bu esa o‘zgarishlarga va yangiliklarga olib kelgan. Karvon yo‘llari bo‘ylab tarqalgan madaniy aloqalar yangi g‘oyalarni, san‘at va ilmiy yutuqlarni olib kelgan.

Karvon yo‘llarining ahamiyati, avvalambor, Ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan savdo faoliyatiga asoslangan bo‘lsa-da, XVI asrdan boshlab, bu yo‘llar o‘zining avvalgi o‘rnini yo‘qotdi. Yangi dengiz yo‘llarining ochilishi, masalan, Portugaliya va Ispaniya dengiz yo‘llari orqali savdo amalga oshirilishi, Ipak yo‘lining iqtisodiy ahamiyatini kamaytirdi. Shuningdek, Islomning tarqalishi va mahalliy hokimiyatlarning o‘zgarishi ham karvon yo‘llarining eski tizimini o‘zgarishlarga olib keldi. Biroq, karvon yo‘llarining tarixi, ular orqali amalga oshirilgan madaniy almashinuvlar va xalqaro aloqalar bugungi kunda ham o‘zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Karvon yo‘llari, tarixan, faqat iqtisodiy savdo yo‘llari emas, balki madaniyatlar va xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu yo‘llar Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy, ilmiy, diniy va iqtisodiy aloqalar o‘rnini belgilab bergan va kelajakdagi global aloqalarning rivojlanishiga zamin yaratgan.

Foydanilgan adabiyotlar.

1) Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 73-78.

2) Қудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 236.

3) Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.

4) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.

5) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.

6) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O‘ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR TARIXSHUNOSLIGIDA. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

7) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O‘ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.

8) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 606-612.

9) Davron o‘g‘li, A. D. (2025). O‘RTA OSIYO KO‘CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O‘RGANILISHI. *YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 100-113.

10) Davron O‘g‘li, A. D. (2025). ILK O‘RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 613-619.

11) Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA‘LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

12) Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.

13) Nematov, R. A., & Almanov’s, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.

14) Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.

15) Неъматов, Р. (2023). Хоразм Африғийлар сулоласи—Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.

16)Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

17)OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

18)Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

19)Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), 14-23.

20)Ne'matov, R. (2023). ILK O 'RTA ASRLARDA XORAZM TARIXSHUNOSLIGINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Interpretation and researches*, 1, 21.

21)Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. *Наука, образование и культура*, (4 (48)), 85-87.

22)Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. *American Journal of Philological Sciences*, 5(02), 10-16.

23)Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 72-78.

24)Неъматов, Р. А. Ў. (2024). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 377-382.

25)BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

26)Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, (3 (18)), 151, 312.

27)Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

28)Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

29)Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 86-87.

30)Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO 'CHMANCHILIK FENOMENINING O 'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).

31)Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O 'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).

32)Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).

33)Komil o'g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI VA BAYTUL-HIKMA OLIMLARI O 'RTASIDAGI O 'ZARO HAMKORLIK. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 305-311).

34)Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO 'LNI O 'ZLASHTIRISH VA KO 'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILII YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).

35)Galiyev, S. (2024, September). O 'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).

36)Galiyev, S. (2024). O 'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O 'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.

37)Hakimova, S., & Galiyev, S. (2025). INGLIZ PARLAMENTING TARIXIY O 'ZGARISHLARI. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 157-163.

38)Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.

39)Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.

40)Шодмонкулова, М. (2025). ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 176-181.

41)Шодмонкулова, М. (2025). ҒАРБ ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 164-169.

42)Шодмонкулова, М. (2025). Либерал-Демократик Ғояларнинг Тараққиёт Стратегиясини Амалга Оширишдаги Ўрни. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 170-175.

43)Шодмонкулова, М. (2025). ЎРТА СИНФ-МУЛҚДОРЛАР СИНФИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 152-156.

44)Шодмонкулова, М. М. (2025). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА СИЁСИЙ ЛИБЕРАЛИЗМНИНГ АҲАМИЯТИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 4(38), 354-357.

45)Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.

46)Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ И НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.

47)Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.

48)Mavlyanov, U. (2022). ABOUT "THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.

49)Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.

50)Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.

51)Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.

52)Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОИЙ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.

53)Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.

54)Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.

55)Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.

56)Исроилов, М. Я. (2019). Образование и его развитие в Узбекистане. *Academy*, (5 (44)), 48-49.

57)Исроилов, М. Я. (2015). Влияние использования Интернет-ресурсов на повышение эффективности обучения истории. *Наука, техника и образование*, (5 (11)), 147-148.

58)Исроилов, М. (2024). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС: ТАРИХИЙ ПОЙДЕВОР ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 419-423.

59)Исроилов, М. Я. (2016). РОЛЬ РАЗЛИЧНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБРЯДОВ И ЦЕРЕМОНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОЛОМ И ВОЗРАСТОМ, В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ И ЭТНОГРАФИИ УЗБЕКОВ. In *Люди, культуры, пространство: социокультурная динамика мира Евразии* (pp. 231-235).